

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 217 (1278), 2024-yil 26-oktabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



YO‘L VA KO‘PRIK QURIB, ODAMLARNING UZOG‘INI YAQIN, MUSHKULINI OSON QILISH ENG SAVOBLI ISH

25-oktabr kuni Qo‘ng‘irot – Beyneu avtomobil yo‘lining yangidan qurilgan 240 kilometr qismi foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan bo‘lib o‘tgan marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.



Bu yo‘l mamlakatimizni Yevropa davlatlari bilan bog‘laydigan strategik avtomagistraldir. Lekin uzoq yillik qatnovlar, Orolbo‘yining keskin kontinental iqlimi tufayli yaroqsiz ahvolda kelib qolgandi. Shu bois, 2021-2024-yillarda 323 million dollarlik loyiha evaziga zamonaviy qilib qayta qurildi.

Davlatimiz rahbari marosimda ushbu yo‘lning ahamiyatini alohida qayd etdi.

— Endi mamlakatimiz hududlaridan xalqaro tashuvlar masofasi 1 ming kilometrgacha, transport xarajatlari esa 25 foizgacha kamayadi. Bu yo‘l yurtimizni Kaspiy va Qora dengiz portlari orqali Yevropa bozorlari bilan ishonchli bog‘laydigan logistika tarmog‘iga aylanadi. Yana bir muhim jihati — “A-380” xalqaro yo‘lagining O‘zbekistondan o‘tgan qismida kunlik transport qatnovi 3 karra oshadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yo‘l jahon standartlariga har tomonlama mos, tekis va ravon. U avvalo xalqimiz, qolaversa, xorijiy turistlar hamda yuk tashuvchilarga qulay va xavfsiz harakatlanish imkonini beradi.

Avvalroq “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” xalqaro avtomobil yo‘lining boshqa qismlari ta‘mirlangan edi. Shu yil 29-fevral kuni Amudaryo ustida Qoraqalpog‘iston bilan Xorazmni bog‘laydigan yangi ko‘prik ochildi. Bunday ishlar odamlar harakatiga qulaylik yaratib, iqtisodiy faollik oshishiga, tadbirkorlik rivojlanishiga ham qo‘shimcha turtki bo‘ladi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, yangi yo‘l atrofida 200 dan ziyod savdo-servis obyekti va sanoat korxonasi paydo bo‘ladi. Shuning hisobidan dastlab 2 mingta, kelgusida esa yana 5 mingta ish o‘rni tashkil qilinadi. Shu tariqa Qoraqalpog‘istonda tranzit va boshqa xizmatlar hajmi yiliga 200 million dollarga, mamlakatimiz

eksporti esa kamida 300 million dollarga oshishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Ushbu magistral yo‘l o‘tadigan To‘rtko‘l, Ellikqal‘a, Beruniy, Nukus, Xo‘jayli, Shumanay, Qonliko‘l, Qorao‘zak va Qo‘ng‘irot tumanlaridagi 1 milliondan ziyod aholi hayoti o‘zgaradi.

Prezident mazkur loyihada ishtirok etgan quruvchi va ishchilarga, Osiyo taraqqiyot bankiga, Turkiya, Ozarbayjon va xitoylik pudratchilarga, Janubiy Koreya va italiyalik konsultantlarga minnatdorlik bildirdi.

— Yo‘l va ko‘prik qurib, odamlarning uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilish eng savobli ishlar qatorida turadi. Biz bunyodkor yo‘lsozlarning timsolida ana shunday olijanob, elning duosi va rahmatiga sazovor bo‘lib kelayotgan zahmatkash insonlarni ko‘ramiz. Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati,



xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladigan bunday ezuq ishlarimiz yanada ko‘paysin, — dedi davlatimiz rahbari.

Mazkur 240 kilometr yo‘lning ikki tomoni — Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumani hamda “Dovud ota” bo‘xona postida hozir bo‘lganlar teleko‘prik orqali aloqaga chiqdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev mamnuniyat bilan yo‘lning ochilishiga ruxsat berdi. Ushbu quvonchli voqea bilan barchani muborakbod etdi.

Marosimda davlat idoralari va jamoatchilik vakillari ham ishtirok etdi.

Shu yerda davlatimiz rahbariga muhandislik inshootlarini monitoring qilish tizimi taqdimot qilindi. Unga ko‘ra, ko‘priklarning muayyan nuqtalariga elektron uzatgichlar o‘rnatiladi. Ular orqali mustahkamlik va xavfsizlik darajasi, hozirgidek belgilangan muddatlarda emas, doimiy nazorat qilib boriladi. Kundalik

me‘yordan o‘zgarish sezilsa, muammo tezda aniqlanib, vaqtda chora ko‘riladi. Bu ko‘priklarning uzoq vaqt yaxshi saqlanishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, bu tizim natijasida mablag‘ tejraladi. 20 ga yaqin qog‘oz shakldagi hisobotlar raqamlashtiriladi. Monitoring ma‘lumotlari 30-yilgacha saqlanadi.

Shunday birinchi loyiha Toshkent xalqaro aeroportiga eltuvchi, Bobur ko‘chasidagi yangi yo‘l o‘tkazgichda qo‘llandi. Marosimda ushbu transport bog‘lamasi ham to‘liq ochildi. Uning umumiy uzunligi 702 metr, eni 46 metr. Shuningdek, 2 ta aylana va 4 ta yoysimon “qanot”lar barpo etilib, Kichik halqa yo‘li hamda Sodiq Tolipov ko‘chalari bilan samarali bog‘langan. Bu qayrilib olishga hojat qoldirmay, avtomobillar harakatini osonlashtirdi. Umuman, ushbu transport

bog‘lamasi 1 soat ichida 5 mingta, bir kecha-kunduzda 132 mingta avtomobilni o‘tkazish quvvatiga ega bo‘ldi.

Prezident bu tizimni avval poytaxtimizdagi 114 ta ko‘prikda va keyinchalik barcha ko‘priklarda tatbiq etish zarurligini ta‘kidladi.

Aytish joizki, mamlakatimizda keyingi sakkiz yilda 2 ming kilometr yo‘l qaytadan qurilgan, 100 ming kilometri ta‘mirlangan. Eng muhimi, bunda sifat o‘zgarimda, yangi turdagi polimer-beton, sement-beton qoplamalar keng qo‘llanilmoqda. Natijada yo‘llardan foydalanish muddati 1,5 barobargacha uzaymoqda.

Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda kelgusi yil yana ming kilometr yo‘l qurish bo‘yicha 10 ta yirik loyiha rejalashtirilgan.

O‘ZA

XALQARO KUZATUVCHILAR YANGI O‘ZBEKISTONDAGI DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR VA IJTIMOY-IQTISODIY ISLOHOTLARNI FAOL QO‘LLAB-QUVVATLAMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-oktabr kuni Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi (YXHT DIIHB) parlament saylovini kuzatish bo‘yicha missiyasi rahbari Duglas Ueykni qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatimizda bo‘ljak parlament sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish masalalari yuzasidan batafsil fikr almashildi.

O‘zbekiston bilan YXHT va uning institutlari o‘rtasida ochiq va samarali muloqot o‘rnatilgani, xususan, byuro bilan unumli hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bo‘ljak parlament sayloviga tayyorgarlik ko‘rish

doirasida DIIHB kuzatuvchilari missiyasi faol ishlayotgani yuqori baholandi. Byuro ekspertlari milliy saylov tizimini takomillashtirish jarayonida ishtirok etdilar. Ular bildirgan tavsiya va takliflarning aksariyati inobatga olinib, mamlakatimiz qonunchiligiga tatbiq etildi.

DIIHB vakili missiya faoliyatiga ko‘rsatilayotgan e‘tibor uchun samimiy minnatdorlik izhor etdi hamda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar

va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Bu galgi saylov ilk bor yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining parlament va mahalliy vakillik organlarining rolini kuchaytirishni nazarda tutuvchi qoidalarida asosida aralash saylov tizimi bo‘yicha o‘tkazilayotgani alohida ta‘kidlandi.

O‘ZA

SAYLOV
2024
27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

YANGILANGAN SAYLOV TIZIMIDA OVOZ BERISH JARAYONI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saylovlarda ovoz berish huquqi demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Bu huquq fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtiroki, xohish-irodasini erkin ifoda etishida muhim ahamiyatga ega. Ovoz berish orqali fuqarolar siyosiy pozitsiyasini namoyon etadi, siyosiy partiyalar va nomzodlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu tariqa davlat hokimiyatini shakllantirish va qonun chiqaruvchi organlar faoliyatida bilvosita ishtirok etadi.

Joriy yildagi saylovlar ilk marotaba yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilab berilgan mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda, parlament va mahalliy kengashlarning davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni va vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o‘tkazilmoqda.

Ertaga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlariga saylov bo‘lib o‘tadi. Yakuniga yetgan muddatidan oldin ovoz berish jarayonida bir milliondan ortiq yurtdoshimiz o‘z konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalangani ham xalqimizning siyosiy faolligi oshib borayotganidan dalolat.

Aralash saylov tizimida siyosiy partiyalar har bir ovoz uchun kurashadi

Bu gal Qonunchilik palatasiga saylovlar aralash saylov tizimida o‘tkaziladi. Endi ovoz berish kunida har bir ovoz muhim ahamiyatga

ega bo‘lib, siyosiy partiyalar buning uchun kurashadi.

Mamlakatimizda bu borada eng mutanosib amaliyot tanlandi. Qonunchilik palatasidagi deputatlik o‘rinlarining 50 foizi majoritar tizim asosida bevosita nomzodlarga ovoz bergan holda, qolgan 50 foizi esa proporsional, ya‘ni partiya ovoz berish orqali saylanadi. Bu mamlakatning turli hududi va parlament o‘rtasida geografik aloqani saqlash hamda siyosiy partiyalar orqali turli manfaatlarni ifodalash imkonini beradi.

Davomi 3-betda

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

Islohotlarimiz samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta‘minlash lozim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

VERTIKAL BOSHQARUV MEXANIZMI VA HAR BIR XODIMNING VIJDON OLDIDAGI HISOBDORLIGI

IJRO INTIZOMINI TA‘MINLASHNING BOSH OMILI

Bugun dunyo miqyosida ro‘y berayotgan iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘sirlari hamda aholi soni oshib borishi nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlarda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdek dolzarb masalani kun tartibiga qo‘ymoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi eng asosiy manba esa har qanday davlatda, shubhasiz, qishloq xo‘jaligidir. Shuning uchun cho‘llanish, qurg‘oqchilik, degradatsiya kabi xavf-xatarlar agrar sohada ham ilmiy izlanishlar, yangidan yangi innovatsiyalar ustida bosh qotirishga undamoqda. Shu bois, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Agrar sohada hali foydalanilmagan imkoniyatlarni ishga solish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerning har

bir qarichidan oqilona foydalanish, ekin maydonlari sho‘rlanishiga qarshi kurashish, sho‘rga, suvsizlikka va turli zararkunandalarga chidamli yangi ekin navlarini yaratish borasida vazirlik va uning tizim tashkilotlari tomonidan aniq muddatlarda amalga oshiriladigan ish rejalar va “yo‘l xarita”lari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish ijro intizomi bilan chambarchas bog‘liq.

Davomi 2-betda



Hayitjon TURDIYEV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti dotsenti

Boshlanishi 1-betda

Ilk marotaba saylovchilar proporsional saylov tizimida siyosiy partiyalarga ovoz beradi. Proporsional saylov tizimida vakillik organidagi deputatlik o‘rinlari siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda siyosiy partiyalarning deputatlikka nomzodlar ro‘yxati o‘rtasida taqsimlanadi. Mazkur tizim ko‘ppartiyaviylik tizimi rivojlanishiga xizmat qiladi hamda parlamentda jamiyatning turli qatlamlari manfaatini ifodalashda ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Saylovchi to‘rtta byulleten
orqali ovoz beradi

Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari saylovi uchun bu galgi byulletenlar mutlaqo yangi shaklda tasdiqlandi.

Bundan tashqari, har bir saylov turi uchun byulletenlarning rangi ham turlicha, ya‘ni Qonunchilik palatasining bir mandatli saylov okrugi bo‘yicha saylov byulleteni och ko‘k, yagona saylov okrugi bo‘yicha och yashil, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahri kengashi saylovi bo‘yicha och sariq, xalq deputatlari tuman, shahar kengashi saylovi bo‘yicha och kulrang tusda qilib belgilandi.

Shuningdek, aralash saylov tizimida saylovchi ikkita byulleten orqali ovoz beradi: birinchisida muayyan nomzodga ovoz bersa, boshqasida esa o‘zi ishongan partiyani belgilaydi. Ushbu

tizim qator ijobiy xususiyatlarga ega. Bu yangi amaliyot saylovchilar tanlovini kengaytirishga xizmat qiladi. Chunki endi saylovchi bir mandatli saylov okrugi bo‘yicha siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan nomzodga o‘z hududi manfaatidan kelib chiqib ovoz berish hamda yagona saylov okrugi bo‘yicha boshqa bir siyosiy partiya ham ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Barcha saylovchilarning ovozi saylov natijalariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Ovoz berish jarayonini
o‘tkazish hamda
ovoz berish joyidagi sharoitlar

Saylovchilar saylov uchashtalarida tanlovini amalga oshiradi. Uchashta saylov komissiyasi saylovgacha va ovoz berish kuni qator vazifalarni bajaradi.

Uchashta saylov komissiyasining ovoz berishdan oldingi faoliyatida quyidagilarni amalga oshiradi: yashirin ovoz berish uchun binoni ovoz berish boshlanguniga qadar tayyor holatga keltiradi, uchashta saylov komissiyasi a‘zolari orasida vazifalarni taqsimlaydi hamda komissiyaning ikki a‘zosi tomonidan imzolangan, muhr bilan tasdiqlangan saylov byulletenlarini tayyorlaydi.

Ovoz berish jarayoni maxsus ajratilgan binolarda bo‘lib o‘tadi. Bu binolarda yashirin ovoz berish uchun yetarli miqdorda kabinalar yoki xonalar jihozlanadi, saylov byulletenlarini berish uchun joylar ajratiladi hamda saylov qutilari o‘rnatiladi. Saylov qutilari ovoz beruvchilar ularning yoniga, albatta, yashirin ovoz berish kabinalari yoki xonalar orqali o‘tib keladigan qilib o‘rnatiladi.

Ovoz berish binolariga tutash hududlar obodonlashtiriladi, fuqarolar, ayniqsa, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun zarur shart-sharoit yaratiladi.

Eng muhimi, saylovchilar tanishib chiqishi uchun uchashta saylov komissiyalari joylashgan binolar bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ro‘yxatga olingan barcha nomzodning Markaziy saylov komissiyasi, hududiy, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan chop etilgan tarjimai holi va dasturlarining asosiy yo‘nalishlari hamda saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyaning Markaziy saylov komissiyasi tomonidan nashr qilingan dasturi, partiya ro‘yxatiga ega bo‘lishi kerak.

Saylovda ovoz berish jarayoni
qachon boshlanadi?

Saylovda ovoz berish jarayoni saylov kuni soat 8:00 dan 20:00 gacha o‘tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to‘g‘risida uchashta saylov komissiyasi saylovchilarni saylovdan kamida o‘n kun oldin xabardor qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan saylov uchashtalarida ovoz berish saylov kuni ushbu saylov uchashtalari joylashgan yerdagi mahalliy vaqt bilan soat 8:00 dan 20:00 gacha o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida, harbiy qismlar,

Aralash saylov tizimida saylovchi ikkita byulleten orqali ovoz beradi:
birinchisida muayyan nomzodga ovoz bersa, boshqasida esa o‘zi ishongan partiyani belgilaydi.
Ushbu tizim qator ijobiy xususiyatlarga ega. Bu yangi amaliyot saylovchilar tanlovini
kengaytirishga xizmat qiladi.

sanatoriylar, dam olish uylari, shifoxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalari, olis va borish qiyin bo‘lgan hududlardagi fuqarolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchashtalarida uchashta saylov komissiyasi, agar ro‘yxatga kiritilgan barcha fuqaro ovoz berib bo‘lgan bo‘lsa, ovoz berish tugagani istalgan vaqtda e‘lon qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan saylov uchashtalarida saylov qutilarini soat 20:00 dan oldin ochish va ovozlarni sanab chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ovoz berish qay tartibda
o‘tkaziladi?

Saylovchi ovoz berish binosiga kelgach, uchashta saylov komissiyasi a‘zosi ga o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatadi hamda saylovchilar ro‘yxatiga imzo qo‘yadi. Shundan keyin unga saylov byulleteni beriladi. Biror sababga ko‘ra saylovchilar ro‘yxatiga familiyasi kirmay qolgan saylovchilarning familiyasi saylovchining shaxsi, fuqaroligi va yashash joyini tasdiqlovchi hujjat asosida saylovchilar ro‘yxati ilovasiga kiritiladi.

Saylovchi saylov byulletenini olgach, uni yashirin ovoz berish kabinasi yoki xonasida to‘ldiradi. Saylov byulletenini to‘ldirish chog‘ida ovoz beruvchi shaxsdan boshqa shaxslarning hozir bo‘lishi taqiqlanadi. Saylov byulletenini mustaqil to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan saylovchi o‘z xohishiga ko‘ra yashirin ovoz berish kabinasi yoki xonasiga boshqa shaxsni taklif qilishga haqli. Bundan saylov komissiyasi tarkibiga kiradigan shaxslar, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari mustasno.

Saylovchi o‘zi yoqlab ovoz berayotgan nomzodning familiyasi, siyosiy partiyaning nomi ro‘parasida, o‘ng tomonda joylashgan bo‘sh kvadratga “+” yoki “✓” yoxud “x” belgisini qo‘yadi.

Ovoz beruvchi to‘ldirilgan saylov byulletenini saylov qutisiga tashlaydi. Ayrim holatlarda buzib qo‘yilgan saylov byulleteni saylovchining iltimosiga ko‘ra yangisiga almashtirilishi mumkin.

Saylov byulletenini berish
tartibini buzganlik uchun
javobgarlik belgilandi

Ovoz berish jarayonini saylov qonunchiligi va xalqaro standartlarga mos ravishda o‘tkazish maqsadida saylov (ovoz berish) byulletenlarini berish tartibini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlik belgilandi. Ushbu yangilik har bir fuqaroning teng saylov huquqlari kafolatini mustahkamlash, “oilaviy” ovoz berish holatlarining oldini olishga qaratilgan.

Xususan, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 5110-moddasiga asosan, saylov komissiyasi a‘zosi tomonidan fuqarolarga bir necha marta yoki boshqa shaxslar nomidan ovoz berish uchun saylov byulletenini berganlik uchun bazaviy hisoblashning bir barobari miqdorida ma‘muriy jarimaga tortish nazarda tutilgan.

Saylovchilar turgan joyida
ovoz berish imkoniyatiga ega

Ayrim saylovchilar sog‘lig‘i yoki boshqa sabablarga ko‘ra ovoz berish binosiga kela olmagan hollarda tegishli uchashta saylov komissiyasi ovoz berishni ushbu saylovchilarning iltimosiga binoan ular turgan joyda tashkil etadi.

Bunday hollarda tegishli komissiyaning kamida ikki a‘zosi ko‘chma saylov qutisi bilan saylovchi turgan joyga yuboriladi. Ular saylovchining xohish-irodasi sir saqlanishiga rioya etgan holda ovoz berilishini ta‘minlaydi. Bunda kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari hozir bo‘lishi mumkin.

Joriy yilgi saylovlarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning saylov huquqi erkin va hech qanday to‘siqlarsiz amalga oshirilishi uchun uyma-uy yurib, 832 ming nogironligi bor shaxs aniqlangan. Shundan 105 mingga saylovda ishtirok etishda ko‘makka muhtoj bo‘lib, ularga 16 mingga yaqin volontyor biriktirilgan.

Jismoniy imkoniyati
cheklanganlar uchun zarur
sharoit yaratiladi

Eng avvalo, ovoz berish binolari jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning kirishiga qulay, jumladan, ovoz berish xonasi binoning birinchi qavatida bo‘lishi, avtotransport vositalari to‘xtab turish joyida nogironligi bo‘lgan shaxslarga alohida joy ajratilishi lozim.

Shu bilan birga, uchashta saylov komissiyasi binosiga kirish joyida nogironlar aravachasiga moslashtirilgan nishab yo‘laklar (panduslar) bo‘lishi va ular belgilangan talablarga mos kelishi kerak. Binoga kirishda nishab yo‘laklarni o‘rnatish imkonini bo‘lmasa, kirish joyida “yordamga chaqirish” tugmasi o‘rnatilishi lozim.

Shuningdek, saylovchilar ro‘yxatida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi saylovchilar mavjud bo‘lgan saylov uchashtalari optik lupalar (kattalashtiruvchi oynalar), qo‘shimcha yoritqichlar, stul hamda Brayl alifbosi asosida tayyorlangan trafaretlar bilan jihozlanishi mumkin.

Xorijdagi fuqarolar
proporsional saylov tizimida
siyosiy partiyalarga ovoz
beradi

O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan saylov uchashtalarida ovoz berish saylov kuni ushbu saylov uchashtalari joylashgan hududdagi mahalliy vaqt bilan soat 8:00 dan 20:00 gacha o‘tkaziladi. Xorijda tuzilgan saylov uchashtalaridagi saylovchilar soni haqida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar asosida Markaziy saylov komissiyasi saylov byulletenlarining tayyorlanishi va yetkazib berilishini ta‘minlaydi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 40 ta chet davlatdagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida 57 ta saylov uchashtasi tuzilgan.

Xorijdagi yurtdoshlarimiz uchun yaratilgan yana bir imkoniyat muddatidan oldin ovoz berish va uni saylovchi turgan joyda amalga oshirish bilan bog‘liq. Ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va chet davlatlarning vakolatli davlat hokimiyati organlari bilan kelishuvlariga muvofiq chet davlatlarning aholi zich joylashgan hududlarida muddatidan oldin ovoz berish saylovchi turgan joyda o‘tkazilishi mumkin.

Bunda xorijda tuzilgan uchashta saylov komissiyasi saylovchilar turgan joyda ovoz berish vaqtini hamda joyi to‘g‘risida qaror qabul qiladi va bu haqda saylovchilarni, kuzatuvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor etadi.

Eng muhim yana bir yangilik — xorijdagi fuqarolar Qonunchilik palatasi saylovda yagona saylov okrugi, ya‘ni proporsional saylov tizimi bo‘yicha ovoz berishi belgilandi.

Qonunchilik palatasi saylovda xorijdagi saylov uchashtalari odatda Toshkent shahridagi saylov okruglariga biriktirilgan bo‘lib, O‘zbekistonning turli hududidan borgan fuqarolar Toshkent shahridan saylanadigan deputatlarga ovoz berish holati xorijdagi fuqarolar orasida turli tushunmovchiliklarga olib kelgan.

Aralash saylov tizimida esa, ya‘ni majoritar va proporsional saylov tizimi joriy etilishi munosabati bilan xorijdagi saylovchilar yagona saylov okrugi orqali siyosiy partiyalarga ovoz beradi.

Saylovda ilk bor
elektron ovoz berish sinovdan
o‘tkaziladi

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2024-yil 27-oktabr kuni Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga bo‘lib o‘tadigan saylovlarda sinov tariqasida elektron ovoz berish pilot loyihasi ishlab chiqildi. Bu jarayonda fuqarolar elektron ovoz berish uskunasi elektron saylov byulletenini to‘ldiradi va tasdiqlaydi. Shundan so‘ng ovoz berish natijasi maxsus printerda avtomatik tarzda chop etilib, saylov qutisiga tushadi.

Mazkur pilot loyihani Toshkent shahridagi 10 ta saylov uchashtasida tajriba-sinov tariqasida amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ovozlarni hisoblashda
nisbiy ko‘pchilik
tamoyili qo‘llanadi

O‘zbekistonda shu paytga qadar vakillik organlariga saylovlarda mutlaq ko‘pchilik amaliyotidan foydalanilgan. Shunga ko‘ra, mutlaq ko‘pchilik tizimida nomzodlarning hech biri mutlaq ko‘pchilik ovozga ega bo‘lmasa (50 foiz + 1 ovoz), ikkinchi tur tashkil etilgan. Unda odatda eng ko‘p ovoz olgan ikki nomzod o‘rtasida takroriy ovoz berish jarayoni tashkil etib kelingan.

Majoritar tizimning nisbiy ko‘pchilik turiga asoslangan saylovlarda g‘alaba qozonish uchun nomzod o‘z rag‘obatlariga nisbatan ko‘proq ovoz olishi kerak va bu yerda mutlaq ko‘pchilik, ya‘ni yarmidan ko‘p ovoz olishi shart emas. Nisbiy ko‘pchilik amaliyoti saylovlarda ovoz berish natijalarini aniqlashning ancha sodda va iqtisodiy jihatdan tejakor usuli hisoblanib, saylovni bir turda o‘tkazish imkonini beradi.

Saylovda kamida 7 foiz
ovoz to‘plagan siyosiy
partiyalargina deputatlik
o‘rinlariga ega bo‘ladi

Aralash saylov tizimining muhim xususiyatlaridan yana biri siyosiy partiyalar fraksiyalari shakllanishi tartibidir. Bu sohadagi yangiliklarga ko‘ra, Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozin olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo‘ladi.

Xususan, proporsional saylov tizimida mavjud deputatlik mandatlariga da‘vogarlik qilish uchun siyosiy partiyalar qo‘lga kiritishi zarur bo‘lgan ovozlarning asosan muayyan foizga teng eng kam miqdori (o‘tish plankasi, baryeri) belgilanadi. Masalan, aralash saylov tizimi keng qo‘llanadigan xorijiy mamlakatlarda ham bunday amaliyot mavjud. Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida 7 foiz ovozin olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo‘ladi. Shu sababli siyosiy partiyalar har bir ovoz uchun kurashadi.

Xulosa

Saylovlardagi eng asosiy va hal qiluvchi bosqich ovoz berishni tashkil etish va o‘tkazish jarayonidir. Xulosa qilib aytganda, saylovlarda ovoz berish jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning manfaatini himoya qilishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ovozi qimmatli va u jamiyatning bir bo‘lagi sifatida o‘z fikrini bildirish imkoniyatiga ega.

2024-yil 27-oktabr mamlakatimiz tarixida demokratik taraqqiyotning yangi sahifalarini ochadi, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda tarixiy ahamiyatga molik sana sifatida muhranib qoladi. Zero, bu yilgi saylovlar “Mening tanlovim — obod vatanim” shiori ostida bo‘lib o‘tmoqda.



SAYLOV 2024 27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

saylov okrugining nomi va soni

ME.O' (RMC.O')

bir mandatli saylov okrugi

SAYLOV BYULLETENI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi deputatlari

SAYLOVI

2024-yil 27-oktabr

Faqat bitta nomzodga ovoz berishingiz mumkin.

Yoqlab ovoz berayotgan nomzod ro'parasida, o'ng tomonida joylashgan bo'sh kvadratga + yoki ✓ yoxud X belgisini qo'ying.

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

DIQQAT! Bittadan ortiq kvadratga belgi qo'yilgan yoki bitta ham kvadratga belgi qo'yilmagan saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

SAYLOV 2024 27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

saylov okrugining nomi va soni

ME.O' (RMC.O')

Yagona saylov okrugi

SAYLOV BYULLETENI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi deputatlari

SAYLOVI

2024-yil 27-oktabr

Faqat bitta siyosiy partiya ovoz berishingiz mumkin.

Yoqlab ovoz berayotgan siyosiy partiya nomi ro'parasida, o'ng tomonida joylashgan bo'sh kvadratga + yoki ✓ yoxud X belgisini qo'ying.

OZLOEP

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi

OEP

O'zbekiston Ekologik partiyasi

XDP

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi

ADOLAT

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi

DIQQAT! Bittadan ortiq kvadratga belgi qo'yilgan yoki bitta ham kvadratga belgi qo'yilmagan saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

SAYLOV 2024 27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

saylov okrugining nomi va soni

ME.O' (RMC.O')

saylov okrugi

SAYLOV BYULLETENI

Xalq deputatlari

viloyati (shahar)

Kengashli deputatlari

SAYLOVI

2024-yil 27-oktabr

Faqat bitta nomzodga ovoz berishingiz mumkin.

Yoqlab ovoz berayotgan nomzod ro'parasida, o'ng tomonida joylashgan bo'sh kvadratga + yoki ✓ yoxud X belgisini qo'ying.

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

DIQQAT! Bittadan ortiq kvadratga belgi qo'yilgan yoki bitta ham kvadratga belgi qo'yilmagan saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

SAYLOV 2024 27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

saylov okrugining nomi va soni

ME.O' (RMC.O')

saylov okrugi

SAYLOV BYULLETENI

Xalq deputatlari

tuman (shahar)

Kengashli deputatlari

SAYLOVI

2024-yil 27-oktabr

Faqat bitta nomzodga ovoz berishingiz mumkin.

Yoqlab ovoz berayotgan nomzod ro'parasida, o'ng tomonida joylashgan bo'sh kvadratga + yoki ✓ yoxud X belgisini qo'ying.

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, Siyosiy partiya nomi

DIQQAT! Bittadan ortiq kvadratga belgi qo'yilgan yoki bitta ham kvadratga belgi qo'yilmagan saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

Bugunning gapi

Oʻtgan yilning boshida poytaxtimizning Yunusobod tumani Amir Temur shohkoʻchasida birinchilardan boʻlib “A” belgi bilan ajratilgan avtobus yoʻlagi paydo boʻlib, unda faqat jamoat transporti harakatlanishiga ruxsat berilgani bois, ishga qatnashim ancha qulaylashgani, manzilga tez, tirbandliklarsiz yetib olayotganim darhol sezilgandi. Uydan ishga 20 daqiqada borardim. Shaxsiy mashina olganimdan keyin vaqt oraliq oʻzgardi, faqat teskari tomonga. Avvalgi masofani endi yarim soat, 40 daqiqada bosib oʻta boshladim. Qizigʻi, bu vaqt kamayish oʻrniga tobora koʻpayib boryapti.



Iroda TOSHMATOVA, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Bunga Toshkent shahri koʻchalarida kun sayin ortayotgan va haydovchilarning asosiy muammosiga aylanib qolgan tirbandliklar sabab ekanini sir emas. Oldinlari tigʻiz vaqlar odatda etralab va kechqurunga toʻgʻri kelgan boʻlsa, hozir kunning istalgan paytida, shaharning istalgan hududida tirbandlikda qolish mumkin. Chunki yurtimizda aholi bilan birga avtomobillar soni ham ortishi tezlashgan. Maʼlumotlarga koʻra, birgina Toshkent shahrining oʻzida roʻyxatdan oʻtgan 760 ming avtotransport mavjud boʻlib, ularning soni yiliga 76 mingga oʻsmoqda. Poytaxtda avtotransport vositalari doimiy harakatlanadigan asosiy yoʻl tarmoqlari uzunligi 470 kilometr boʻlgani holda 380-400 ming avtotransport harakatiga moʻljallangan. Ammo odatda bu raqam 1 millionga yetib, avtotransport harakati bir vaqtning oʻzida harakatlanish sigʻimidan 2 barobar oshib ketyapti. Bu asosiy koʻchalarga ikki karra koʻp yuklama tushyapti, degani. Yoʻllarda turnaqator tirbandliklar yuzaga kelishi ham shu bilan bogʻliq.

Toʻgʻri, avtomobil xarid qilish yaxshi niyat, orzu-havaslardan biri. Odamlarda mashina sotib olish imkoniyati oshib borayotgani, hatto bir xonadonda bir necha avtoullov borligi, koʻchalarimizda xorij avtomobillari koʻzni quvnatib yurgani yaxshi, albatta. Ammo ularning koʻpayishi hisobiga shaxsiy avtomobilda harakatlanish qiyinlashib

Yoʻlaklar faqat jamoat transportiga xizmat qilsa, odamlarning avtobuslardan foydalanishi koʻpayadi. Chunki jamoat transportini rivojlantirish, ularga yoʻllarda ustunlik berish yurtdoshlarimizning ham zaruriy talabiga aylanib bormoqda.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

“A” TASMALI YOʻLLAR

BARCHA AVTOTRANSPORT VOSITALARI UCHUN EMAS

borayotgani, tirbandliklar ortib, yaqin masofalar olisdek tuyulayotgani ham bor gap. Avtomobillardan chiqayotgan zararli tutunning ekologiyaga yetkazayotgan taʼsiri esa alohida mavzu.

Shunday sharoitda jamoat transportini rivojlantirish, odamlar uchun qulay transport vositasiga aylantirish zarurligi aytilayotgani bejiz emas. Nafaqat aytilaypti, balki kerakli chora-tadbirlar koʻrilmogʻda. Boisi, har kuni oʻqishga, ishga yoki boshqa yumushlar bilan biror manzilga qatnaydigan odamlar uchun arzon, tezkor va xavfsiz transport vositasi zarur. Bu vazifani esa jamoat transportchilik biror avtoullov uddalay olmaydi. Qolaversa, shahar sharoitida jamoat transportidan foydalanish koʻpchilikka qulay.

Ana shu qulaylikni yanada oshirish uchun keyingi yillarda koʻchalar, yoʻllarda jamoat transportiga ustunlik berish choralarini koʻrilmogʻda. Asosiy maqsad keng jamoatchilik foydalanadigan transport vositalari tirbandlikda qolmasligi, odamlar manziliga tezroq yetib olishini taʼminlashga qaratilgan. Shu bois, 2023-yildan poytaxtimizda alohida avtobus yoʻlaklari tashkil etilib, “A” harfi bilan ajratila boshladi. U faqat avtobuslar harakati uchun tashkil etilib, unda harakatlanadigan yengil avtomobillarga jarimalar ham belgilandi.

Oʻtgan yilning boshida Toshkent shahrida 186,6 kilometr avtobus yoʻlagi tashkil etish belgilab olingan boʻlsa, Prezidentimizning tegishli qarori bilan 2025-yilgacha poytaxt koʻchalarida jamoat transporti doimiy harakatlanadigan umumiy uzunligi 475 kilometr boʻlgan 36 ta alohida avtobus yoʻlagi paydo boʻladi, — deydi Transport vazirligi Jamoat transporti boshqarmasi boshligʻi Mirakbar Ikromov. — Ayni paytda Toshkent shahrida 164 ta yangi yoʻnalish tarmogʻida kuniga 1638 ta avtobus qatnamoqda. Tahlillarga koʻra, hozir poytaxtdagi mobil aholining kunlik qatnovi soni oʻrtacha 11 millionni tashkil etib, uning 2,1 millioni, yaʼni 26,3 foizi jamoat transporti (avtobus va metro) hissasiga toʻgʻri kelyapti. Bu hali kam. Yaqin yillarda aholining koʻp qismini jamoat transportida harakatlanishga jalb etish koʻzda tutilgan. Buning uchun huquqiy asoslar yaratilib, aniq chora-tadbirlar koʻrilyapti. Xususan, Prezidentimizning joriy yil 24-sentabrda qabul qilingan “Chang boʻronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi



qarorida Toshkent shahrida jamoat transporti ustuvorligini oshirish boʻyicha qator takliflar nazarda tutilgan. Alohida avtobus yoʻlaklarini tashkil etish orqali tezkor avtobus yoʻnalishlari (BRT) tizimi joriy qilinadi.

Qoidabuzarlar jarima toʻlaydi

Avtobus harakati uchun alohida yoʻlak ajratilishi keng jamoatchilik, faollar tomonidan ijobiy kutib olinib, qoʻllab-quvvatlayapti. Koʻpchilik bunday yoʻllarni kengaytirish, eng asosiysi, ularida yengil avtomobillar harakatlanishini taqiqlashni qatʼiy nazoratga olish tarafdori. Boisi, “A” belgisi yoʻllarda harakatlanish odatdagidek davom etib, istalgan mashina erkin foydalansa, u holda alohida yoʻllarni belgilab, maxsus belgilarni chizib chiqish ortiqcha ovoragarchilikdan boshqa narsa boʻlmaydi. Chunki jamoat transporti yana avvalgidек tirbandlikda qoladi va uning alohida yoʻlda harakatlanishidan hech qanday maʼno yoʻq.

Dastlab alohida avtobus yoʻlaklari ochilib, nazorat kuchaytirilgach, jarayon tartibga tushib oldi. Hatto Toshkent shahri boʻylab avtobus yoʻlaklarida harakatlanadigan boshqa transport vositalarining qoidabuzarliklarini qayd etib, jarimaga tortadigan 50 dan ziyod foto va

videokamera ham oʻrnatildi. Ammo oradan bir yil oʻtsa hamki, bu kameralar amaliyotda toʻliq ishlamadi va buni tushunib yetgan haydovchilar nazarda tutilgan. Alohida avtobus yoʻlaklarini tashkil etish orqali tezkor avtobus yoʻnalishlari (BRT) tizimi joriy qilinadi.



Shoʻrchi tumanidagi Doʻstlik mahallasida yashovchi Xolmirza Qosimov hayotining bir qismini xorijda ishlash bilan oʻtkazdi. Payvandchilik qildi. Baland-baland imoratlar qurilishida qatnashdi. Bu imoratlar oʻzga xalq uchun ekanidan koʻpincha ezildi. Mamlakatimizdagi yangilanishlar uning hayotini ham keskin oʻzgartirdi. Endi u oilasiga moʻmay daromad keltirish bilan birga mahalladoshlarining ish bilan taʼminlanishiga hissa qoʻshyapti.

Xolmirza Qosimov 2022-yilda “Har bir oila — tadbirkor” davlat dasturi doirasida imtiyozli kredit oldi. Shu mablagʻ evaziga 10 sotix tomorqada issiqxona qurdi. Dastlab 3 yil qulupnay yetishtirdi. Ekin orasida bodring va pomidor ham parvarishladi. Tinib-tinchimas tomorqa egasi koʻchatchilikka ham qoʻl urdi. Mehnati ortidan joriy yilda u Oʻzbekiston fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashining “Ilgʻor fermer”, “Mehnatkash dehqon” va “Namunalı tomorqachi” koʻkrak nishonlariga munosib



topildi. Shu bilan cheklanib qolgani yoʻq. Bugun tumanda osmonga boʻylayotgan imoratlar bunyod etilishida ham payvandchi sifatida ishtirok etyapti.

Shoʻrchi tumanidagi Doʻstlik mahallasining asosiy drayveri esa dehqonchilik qilib belgilandi. — Mahallamizda joriy yilning oʻzida deyarli har bir xonadonda issiqxona tashkil etildi. Ularda asosan qulupnay, karam, limon va boshqa ekinlar yetishtirilmoqda. Odamlarga tomorqadan samarali foydalanish va undan daromad olishni oʻrgatish orqali ham kambagʻallikni qisqartirish, ham oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash mumkin. Yurtdoshlarimizdagi tadbirkorlik kayfiyati Shoʻrchidagi mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilarini ham yangi tashabbuslar sari undamoqda, — deydi “Doʻstlik” MFYdagi hokim yordamchisi Jamshid Boʻriyev.

Bir-birini toʻldiradigan mexanizmning shakllanishi evaziga aholining bugunidan roziligi, ertangi kunga ishonchi ortib bormoqda. Shu yil 11-sentabrda kambagʻallikni qisqartirish ishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish masalalariga bagʻishlab oʻtkazilgan videosektor yigʻilishida mamlakat boʻyicha 260 ming gektar yer 800 ming fuqaro, avvalo, yoshlarga dehqonchilik qilish uchun daromad keltiruvchi aktiv sifatida tarqatilgani taʼkidlandi. Shuningdek, oilalarni kambagʻallikdan chiqarishda shaxsiy tomorqalardan oqilona foydalanib, yerdan olinadigan daromad miqdorini koʻpaytirish kerakligi alohida qayd etildi.

Shu kunlarda mazkur topshiriq yuzasidan Surxondaryo viloyatida ishlar qizgʻin davom

etayotir. Vohada jami 482 ming 938 ta xonadonda dehqonchilik qilinadigan 49,5 ming gektar tomorqa mavjud. 2024-yilning erta bahorida 42,3 ming gektarga ertaki, 45 ming gektarga takroriy va 44,2 ming gektarga toʻqsonbosti ekin ekish rejalashtirilgandi. Shu kungacha ertaki va takroriy ekinlar toʻliq ekildi.



Hududning tuproq va iqlim sharoiti, shu yerlarda istiqomat qiluvchilarning dehqonchilik tajribasidan kelib chiqib, “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida Surxondaryodagi 572 ta mahalla muayyan turdagi qishloq xoʻjaligi mahsulotini yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. Jumladan, sabzavotchilikka 318 ta, kartoshkachilikka 76 ta, polizchilikka 13 ta, bogʻdorchilikka 91 ta, rezavor mevalar yetishtirishga 10 ta va chorvachilikka 64 ta mahalla tanlab olingan.

Vohada tomorqachilik infratuzilmasini rivojlantirish uchun Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi hisobidan jami 19,1 milliard soʻm imtiyozli kredit ajratildi. Aholi tomorqasida yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash uchun 69 ta — jami 4075 tonna sigʻimli sovitkichli omborlar qurildi. Jamgʻarma mablagʻlari hisobidan tijorat banklari orqali 67 ta loyiha uchun imtiyozli kredit berildi. Issiqxonalarini koʻpaytirish, yiliga 2-3-marta hosil olish uchun 4,1 ming xonadonda namunaviy, 2,4 ming xonadonda ixcham issiqxonalar qurildi. Jumladan, Shoʻrchi tumanidagi 503 ta xonadonga tegishli jami 11 gektar yerdan kichik issiqxonalar barpo qilindi.

Maftuna Roʻzimatova Shoʻrchi tumanining Ezgulik mahallasida yashaydi. U kelinlik vazifasi, farzand tarbiyasidan ortib, tomorqadan ham samarali foydalanmoqda. Qaynana-qaynatasi ham dehqonchilik borasida Maftunaga yaqindan koʻmaklashmoqda.

— Tomorqamizda yetishtirgan mahsulotimizni sotib, daromad olamiz, — deydi Maftuna Roʻzimatova. — Toʻgʻrisi, hech kimdan qolishmaydigan ishimiz, daromadimiz bor. Tomorqamizga ekilgan karamdan ham

Ammo taqiqlashning oʻzi bilan ish bitmaydi, qoidaga amal qilmaganlar jarimaga tortiladi. Amaldagi qonunchilikka koʻra, haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yoʻllaridan yurgizishi, yoʻl belgilari va yoʻl harakatining boshqa qoidalar talablariga rioya etmasligi BHMning ikkidan bir qismi, yaʼni 187 ming 500 soʻm miqdorida jarimaga sabab boʻladi. Agar avtomobil oʻsha yoʻlakda toʻxtasa, toʻxtaganda ham bu holat yoʻlovchini tushirish yoki chiqarish bilan bogʻliq boʻlmasa, unga BHM miqdorining 2 baravari — 750 ming soʻm miqdorida jarima jazosi beriladi.

Yoʻlda tirbandlikda turganida baʼzan tez yordam yoki oʻt oʻchirish mashinalarining ogohlantiruv signallari eshitilib qoladi. Kimningdir hayotini saqlab qolish yoki baxtsiz hodisani bartaraf etishga oshiqayotgan insonlar tirbandlikdan yoʻl topib, chiqib ketishga urinadi. Ammo turnaqator tizilgan mashinalar orasida qani biror joy boʻlsa. Shunday vaqtda aynan ularning ham erkin, tez harakatlanishi uchun ajratilgan avtobus yoʻlaklari yengil avtomashinalar bilan toʻla ekanini odamning gʻashini keltiradi. Qoidaga amal qilmay, jamoat transporti va maxsus xizmat mashinalari harakatiga xalal berganlar jarima toʻlashi shu jihatdan adolatli yechimdir.

Yoʻlaklar faqat jamoat transportiga xizmat qilsa, odamlarning avtobuslardan foydalanishi koʻpayadi. Chunki jamoat transportini rivojlantirish, ularga yoʻllarda ustunlik berish yurtdoshlarimizning ham zaruriy talabiga aylanib bormoqda. Maʼlumotlarga koʻra, Toshkent shahrida aholi soni yiliga oʻrtacha 100 mingga oshmoqda. Poytaxtdagi 5 milliondan ortiq aholining 3 millioni hududda doimiy istiqomat qiluvchilardir. Qolaversa, shahrimizga kelib-ketuvchi mehmonlar ham koʻpchilikni tashkil etadi. Odamlarning aksariyati doimiy harakatlanishda jamoat transportidan foydalanishni afzal koʻradi. Aslida, dunyoning koʻplab davlatlarida shunday, aholi uchun kundalik qatnovda shaxsiy avtomobildan koʻra jamoat transporti qulay hisoblanadi.

Mutaxassislarning aytishicha, Toshkent shahrida bitta yengil avtotransport vositasida bir kunda oʻrtacha 4,8 nafar yoʻlovchi tashilsa, bitta avtobusda bu koʻrsatkich oʻrtacha 700 yoʻlovchini tashkil etmoqda. Bu avtobusning yengil avtotransportga nisbatan 145 barobar samarador ekanini koʻrsatadi. Qolaversa, shaharda tirbandlikning oldini olish, aholining kunlik harakatlanishga boʻlgan ehtiyojini qondirib, yoʻlga sarflanadigan vaqt va moddiy resurslar samaradorligini oshirish uchun ham sifatli, qulay, xavfsiz va joziabador jamoat transporti tizimini joriy etish lozim.

— Har yili xorijdan avtobuslar olib kelinaypti, — deydi Mirakbar Ikromov. — Masalan, 2022-yilda Toshkent shahri uchun oʻrta sigʻimli 200 dona va katta sigʻimli 190 dona avtobus va ilk bor 20 dona zamonaviy elektrobus xarid qilingan edi. 2023-yilda esa shahar jamoat transporti harakat tarkibini mukammal yangilash loyihalarini natijasida qoʻshimcha 1000 dona avtobus keltirildi. Ularining 302 tasi elektrobus boʻlib, asta-sekin shaharda shu kabi ekologik transport vositalariga oʻtish koʻzda tutilgan.

Umuman, shahrimizda soʻnggi ikki yilda avtobuslar soni 2 barobar, harakat tarkibining oʻrtacha sigʻimli esa 74 foiz oshdi. Ularning oraliq intervali 2-3 karra qisqargan, hozir 8-10 daqiqani tashkil etyapti. Kunlik yoʻlovchi oqimi 1 millionga yetdi. Poytaxtga kirib keladigan aholining shahar markaziga yetib borish vaqti esa 45 daqiqadan 30 daqiqagacha qisqardi. Jamoat transporti harakati uchun tashkil etilayotgan alohida ajratilgan yoʻlaklar boʻlmas, koʻrsatkichlarni yanada yaxshilaydi. Har holda koʻpchilik ijobiy oʻzgarishlarni allaqachon amaliyotda sezmoqda.

yaxshi foyda olamiz. 6 sotix yerda qurilgan issiqxonamizdagi limonlar ham allaqachon hosilga kirgan.

Tumandagi Ozod mahallasida yashovchi Elmurod Xoʻjamiyrovning ham 40 sotix yeri bor. Tomorqaga munosabat oʻzgargani ortidan u ham shu kunlarda 600 tupga yaqin pavlovniya koʻchatini parvarishlamogʻda.

Pavlovniya koʻplab noyob xususiyatlarga ega: yogʻochi yengil va zichligi yuqori. Daraxtning sugʻa qarshiligi bor. Shu bois, sugʻa solsangiz, boʻkib qolmaydi, tez boʻl boʻlib, chirib ketmaydi. Undan asosan qayiq, musiqa asboblari va mebellar yasashni sababi ham shundan. Yana bir afzalligi, pavlovniya yogʻochi juda mustahkam boʻlgani bois, yuqori haroratga chidamli. Boshqa daraxtlar 250-300 darajada yonsa, u 450 daraja issiqlikkacha dosh beradi.

Oʻsimliklar karantini va himoyasi tuman boʻlimi inspektorlari hududdagi tuproqning agrokimyoviy tahlili, qishloq xoʻjaligiga yetkazib beriladigan barcha turdagi mineral hamda mikrobiologik oʻgʻitlar sifatini nazorat qilish, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari tarkibidagi pestitsid, nitrat va ogʻir metall tuzlar qoldiqlarini tekshirish maqsadida dala sharoitida tahlillar oʻtkazmoqda.

— Zararli organizmlarga qarshi kurashning uygʻunlashgan samarali usullarini belgilash, ijrosini nazorat qilish, monitoring olib borish, iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin boʻlgan zararkunandalarning hududga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish borasida real ishlar bajarilyapti. “Agrokoʻmakchi” mobil ilovasi orqali esa oʻsimliklar himoyasi, bu sohadagi xizmatlar, foydali maʼlumotlar, eksport boʻyicha maslahatlar berib borilmoqda, — deydi tuman fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi Ibrohim Oʻsarov.

Shoʻrchi tumanida tomorqa yer egalari va dehqon xoʻjaligi maydonlarida dehqonchilik madaniyatini yanada rivojlantirish, qolaversa, har yili 2-3-marta hosil olishga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Sarvar TOʻRAYEV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Taraqqiyot odimlari

BOLALAR REANIMATSIYASI

Bunda ustunlik zamonaviy texnologiya va salohiyatli kadrlarga bog‘liq



anesteziologiya va reanimatsiya bo‘limi mudiri Ravshan Avezov.

Kichik amaliyotlarni hisoblamaganda yuqori texnologik operatsiyalar soni va sifati o‘tgan yildagiga qaraganda mingtaga oshgan. Bu 1800 tadan ziyodni tashkil etadi. Ushbu amaliyotlarning 50 foizga yaqini yuz-jag‘ jarrohligi va otorinolaringologiya yo‘nalishida amalga oshirilgan. Qolgani rejali va yiringli xirurgiya, neyroxirurgiya, ortopediya va boshqa xirurgik yo‘nalishdagi bo‘limlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu bemorlar reanimatsiya bo‘limida 1 soatdan 6-7 kungacha kerakli muolajani olib, yo‘nalishlar bo‘yicha bo‘limlarga ko‘chirilgan.

Bugungi reanimatsiyaning kechigidan farqi

Uzoqqa bormaylik. 1996-yilda bo‘limda Ro-6 rusumli bittagina narkoz beruvchi apparat bo‘lgan. Juda sodda va ma‘nan eskirgan bu apparatning bemorga foydasidan zarari ko‘proq tekkanini tibbiyot xodimlari bilsa ham boshqa muqobili yo‘qligi bois, mavjud imkoniyatdan foydalanishga majbur edi. Bino esa reanimatsiya uchun maxsus qurilgan va jihozlangan bo‘lmagan. Xodimlar moslashtirilgan inshootda faoliyat yuritgan. Bemorlarni kislorod bilan ta‘minlash ham talab darajasida emasdi. Og‘ir kislorod ballonlarini tibbiyot xodimlari sudrab yurardi.

Bugun kislorod stansiyalari joriy etilgani, eng ilg‘or firmalarning sun‘iy nafas berish apparatlari ishlab chiqarilgani zamonaviy reanimatsiya imkoniyatlarini bir necha karra oshirdi. Jumladan, tibbiyoti ilg‘or mamlakatlar foydalanayotgan Germaniyaning “Fabius plus” narkoz apparatlari bu yerda ham bemorlar joniga oro kirmoqda. Monitorlar va o‘pkaning sun‘iy ventilyatsiyasi apparati (IVL) ham kechagisidan tubdan farq qiladi. Elektr so‘rg‘ichlardan tortib, dozatorlarga barcha uskunalar bugungi reanimatsiyaga katta ustunlik berayotir.

Ilgari bemorning holati klinik o‘rganilgan. Hozir laboratoriyadan boshlab kunlik monitor yordamida bir sutka davomida bemorda kuzatilgan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma‘lumot olinib, operativ davo choralarini belgilanyapti. Bu esa davolanish muddatini qisqartirdi, bemorlarning tuzalishini tezlashtirdi va dori-darmonga ortiqcha ehtiyojni kamaytirdi.

Endi hamshiralar ham xorijga boradi

Reanimatsion bemorlarni parvarishlashda hamshiralarning o‘rni muhim. Bunda katta tajriba, puxta bilim, tez ishlash, nihoyatda mustahkam iroda, har bir bemorga individual yondashuv, xuddi yaqinidagi ko‘rib, parvarish qilish talab etiladi. Hamshira ishiga taalluqli vazifalarni bilish va ularga amal qilishi, har qanday shoshilinch holatda kasallik sabablari, belgilarni differensial baholash, shoshilinch

Hamzabek TURDIYEV,
O‘zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a‘zosi

Yutuqlar qo‘lga kiritilar ekan, soha mutaxassislari oldiga yangi maqsad va marralar qiqaveraladi. Galdagi vazifa perfuziologiya yo‘nalishini rivojlantirish va shu yo‘nalish bo‘yicha kadrlar tayyorlashdir. Bu borada ilk qadamlar qo‘yilgan va kelgusi oydan tibbiyot



xodimlari malaka oshirish uchun xorijdagi yetakchi klinikalarga yuboriladi. 2025-yildan boshlab shu yo‘nalishda bo‘lim ochildishi va faoliyat yuritishi rejalashtirilmoqda.

— Bo‘limimiz 18 yoshgacha bo‘lganlarga tibbiy yordam ko‘rsatadi. Ko‘plab xastaliklar 24 soatda tashxislanib, operativ jarayon amalga oshiriladi. Chillasi chiqqan go‘daklar va undan kattalar barcha turdagi somatik va xirurgik kasalliklar bo‘yicha davolanadi. Biz kardioreanimatologik, gematologik, nevrologik xastaliklar, buyrak yetishmovchiligi, torakal abdominal xirurgiya, neyroxirurgiya, yuz-jag‘ jarrohligi yo‘nalishida bemorlarga qo‘limizdan kelgan yordamni ko‘rsataymiz, — deydi

Nuqtayi nazar



Yurtimizda ta’lim sohasi qator yo‘nalish va omillar, xususan, ta’lim va tarbiyaga zamonaviy metodikalarni joriy etish, uning saviyasini xorijiy va milliy tajribalar asosida xalqaro andazalar darajasiga ko‘tarish hamda soha vakillarini moddiy rag‘batlantirish asosida keng isloh qilinmoqda.

TARBIYA – TA’LIMning BIR QANOTI

Xolboy IBRAGIMOV,
Qori Niyoziy nomidagi
Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori,
akademik



Bu borada Prezidentimizning joriy yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hujjatga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti negizida butkul yangicha asosda Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tashkil etildi.

Ta’lim va tarbiya qo‘shqanotdir. Chunki ta’lim tarbiyasiz to‘kis va mukammal bo‘la olmaydi. Ayni shu ma’noda yangi o‘quv yurtining Tarbiya pedagogikasi milliy instituti deb qayta nomlanishi chuqur mazmun va mohiyatga ega.

Qarorga muvofiq, milliy institut zimmasiga bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar tarbiyasi sohasida qo‘llaniladigan ilmiy-metodik ta’minotni amalga oshirish, buyuk allomalimiz, xususan, jadidlarning mazkur yo‘nalishdagi qarashlarini ilmiy tadqiq etish va ana shu asosda zamonaviy metodikalar ishlab chiqish kabi vazifalar yuklatildi. Shuningdek, o‘quvchilar tarbiyasida mahalla



Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchi va o‘quvchilari uchun milliy tarbiya yo‘nalishida turkum adabiyotlar nashr etiladi. Tarbiya yo‘nalishida institut tomonidan amalga oshiriladigan yangi loyihalarga xorijiy ekspertlar, davlat va nodavlat tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari va jamoatchilik institutlari mutaxassislari hamda olimlari jalb etiladi.

va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, bu borada ota-ona va o‘qituvchilar uchun o‘quv, ommabop adabiyotlar yaratishni tizimli yo‘lga qo‘yish kabi qator maqsad va yo‘nalishlar ko‘rsatib berildi.

Yana bir muhim yangilik shundan iboratki, 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tajriba-sinov tariqasida bosqichma-bosqich jahonda tan olingan ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social and Emotional Learning – SEL) metodikalarini joriy qilish nazarda tutilgan.

“Yana bir muhim yangilik shundan iboratki, 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tajriba-sinov tariqasida bosqichma-bosqich jahonda tan olingan ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social and Emotional Learning – SEL) metodikalarini joriy qilish nazarda tutilgan.

ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi tashkil etiladi. Qarorda belgilanganidek, institutning ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari endi butkul yangicha asosda shakllantiriladi. Bunda asosiy e’tibor tarbiya sohasidagi mavjud muammolarga qaratiladi.

Institut yetakchi xorijiy universitet va ilmiy markazlar bilan tarbiya metodikalarini ishlab chiqish bo‘yicha hamkorlik o‘rnatadi. Ular bilan birgalikda qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazadi.

Bundan tashqari, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchi va o‘quvchilari uchun milliy tarbiya yo‘nalishida turkum adabiyotlar nashr etiladi. Tarbiya yo‘nalishida institut tomonidan amalga oshiriladigan yangi loyihalarga xorijiy ekspertlar, davlat va nodavlat tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari va jamoatchilik institutlari mutaxassislari hamda olimlari jalb etiladi.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda Milliy gvardiya bilan birgalikda joriy o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Farzand tarbiyasida ota-onaning mas’uliyati” mavzusida tarbiya haftaliklari o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, ota-onalarning farzand tarbiyasi borasidagi bilimni oshirishga qaratilgan “Namunali ota-onalar maktabi” loyihasi hamda milliy tarbiyaning hududiy an’analarni o‘rganish, tiklash va zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimiga joriy qilib qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi.

Joriy yilning 1-dekabriga qadar o‘quvchilarda “huquqbuzarlikka qarshi immunitet”ni shakllantirishda “maktab — ota-ona — mahalla” hamkorligi janjirini yaratish bo‘yicha ilmiy asoslangan o‘quv va ommabop uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ota-onalarning farzand tarbiyasiga oid dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan adabiyotlar xalqchil tilda bo‘lishi nazarda tutilgan.

Shu yil so‘ngida “Tarbiya — shaxs madaniy-ma’naviy kamolotining mezonini” mavzusida xalqaro forum o‘tkazish belgilangan.

Prezidentimiz qarorida zamonaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish maqsadida 2025-yil yakuniga qadar ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yoshlar tarbiyasiga oid raqamli kontentlarni joylashtirish maqsadida milliytarbiya.uz elektron platformasi va uning mobil versiyasini ishlab chiqish hamda zamonaviy va qiziqarli kontentlar bilan to‘ldirish vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, institutning metodik tavsiyalari asosida yoshlar ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlangan podkast, videokontentlar yaratish va ommaviy axborot vositalari orqali yoritish ishlarini tizimli tashkil etish belgilangan.

Institut huzurida “Tarbiya metodikalari” ilmiy-jurnali nashr etilish hamda ko‘p funksional bosmaxona ochish ham nazarda tutilgan. Bu esa, o‘z navbatida, tarbiya pedagogikasi borasidagi tajribalarni keng targ‘ib qilish, ommalashtirish, qo‘llanmalarni ko‘p nusxada chop etish va tarqatilishiga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston o‘z oldiga kelgan ko‘lamli maqsad va vazifalar qo‘ygan. Ularni to‘la-to‘kis amalga oshirish kelgusi avlodlarimiz oloyatgan ta’lim va tarbiyaga bevosita bog‘liq. Bilimli va tarbiyalı yoshlar mamlakatimiz kelajagi, oldimizga qo‘yilgan ulug‘vor maqsad hamda vazifalarimiz ro‘yobga oshirishining mustahkam kafolati sanaladi. Bugungi kunda butkul yangicha asosda tashkil etilgan va shakllanayotgan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ana shu jarayonga munosib hissasini qo‘shishga harakat qilmoqda. Ta’lim va tarbiyaning ham zamonaviy, ham milliy an’ana va qadriyatlarimizga asoslangan yangi metodikalarini ishlab chiqadi hamda amaliyotga tatbiq etadi.

